

## **AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI**

**Xamidova Gulzina Ural qizi**

*TDPUning "Axborot tizimlari va texnologiyalari" yo'nalishi 1-kurs talabasi*

XXI asr "Axborot texnologiyalari asri"da taraqqiyot jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Globallashuv davrida fan, texnika va axborot kommunikatsiya sohalari rivojlanishi natijasida yangi imkoniyatlar vujudga kelmoqda. Shuningdek, axborot kommunikatsiya sohasi taraqqiy topmagan davrdagi eskirgan pedagogik qo'llanmalardan voz kechib, hozirda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasidan foydalanib dars jarayonlari o'tkazish zamonamizning eng muhim talabi bo'lib qolmoqda.

Hozirgi davrda ta'limni axborot texnologiyalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, mana shu sababli barchamiz "yangi pedagogik texnologiyalar" atamasini ishlata boshladik. Misol uchun, shaxsiy kompyuterlar ta'limning imkoniyatlarini butunlay o'zgartirib yubordi. Internet leptomlar ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha yanada kattaroq imkoniyatlar yaratib berdi. O'zbekiston mustaqilligi sharoitlarida ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim va tarbiya tizimiga ilg'or axborot texnologiyalarining tatbiq etishi bilan bog'liq. Bu texnologiyalarning rivojlanayotganligi ta'lim sohasining yanada o'sishini, kelajak avlodning bilim va ko'nikmalarini chuqurroq o'rganishida samarali yordam berayotganini ko'rishimiz mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu kabi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmagan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tish imkon beradi:

1) Bilimlarni egallash yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga

olib kelsa, axborotlar bilimlar to'plash jarayonining mazmunli jihatini ta'minlash uchun kerak b'ladi. Internet va "Butun jahon tarmog'i" barcha ijtimoiy qatlamdagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo'lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Internet tarmog'i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko'plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta'lim tizimida qayta aloqani ta'minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi to'siqlarni yo'qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog'liq sohalar hamda ta'lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar – saytlar ta'lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo'qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o'quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot-tarbiyaviy faoliyatdir. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va ular bilan bog'liq bo'lgan sohalar rivoji ham ta'lim tizimida eng jadal rivojlangan sektorlar hisoblanadi. Shu jumladan elektron pochta kutubxonalar, kompyuter tarmoqlari va saytlar ta'lim tizimida cheksiz imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bugungi kunda fan hamda ta'lim tizimini rivojlantirish masalasida axborot texnologiyalari o'z o'rniga egadir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikga erishganidan so'ng ta'lim tizimini isloh qilish birinchi navbatda ta'lim hamda tarbiyaviy tizimga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tatbiq etilishi bilan bog'liq. Mustaqillikdan so'ng "Axborot va matbuot erkinligi, fuqarolarning o'z xohish-irodasini bildirishi davlat idoralari faoliyatining ochiqligi va oshkoraligi-Yangi O'zbekistonning sifat ko'rsatkichlaridan biriga aylanishi barcha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirishda doril-amal bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasining amaldagi Prezidenti tomonidan jamiyatning huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida yaxlit "AXBOROT KODEKSI" qabul qilindi.

Axborot texnologiyalaridan faqat o'quv jarayonida emas, balki uzluksiz ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan o'qituvchilarni ilmiy-texnik va maxsus axborot bilan

ta'minlaydigan axborot ishida, ta'lim tizimini boshqarishda va kadrlarning malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash tizimida ham foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida axborot sohasida ham amaliy natijalar bo'lishi asosiy mezonga aylanmoqda. Axborot-kommunikatsiya sohasidagi taraqqiyot ya'ni rivojlanishning eng asosiy maqsadi - O'zbekistonda matbuot erkinligini qonuniy asosda ta'minlanishi, axborot texnologiyalarini keng joriy etilgan demokratik mamlakatlar qatoridan o'rin olishini ta'minlashdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. <https://www.inter-nauka.com/uploads/public/14991014586929.pdf>
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-tizimida-axborot-texnologiyalarning-tutgan-o-rni>
3. <https://infocom.uz/axborot-texnologiyalarining-talimdagi-orni/>
4. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students' Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. www. auris-verlag. de.
5. Mamarajabov O.E. Benefits of Using Information Technology in the Education System //Vocational Education. Tashkent, 2019. No.1. P. 55-59
6. Muratov Elvin Ilich. (2022). Problems of choosing innovative strategies for the educational process based on empirical methods. World Bulletin of Social Sciences, 8, 101-103. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbss/article/view/732>
7. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).
8. Uroкова Sharofat. (2023). Digitalization of education at the present stage of development. World Bulletin of Management and Law, 23, 60-63. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/2873>

9. Бакиева, З. Р., & Мамараджапов, О. Э. (2017). К вопросу о мобильном обучении с помощью современных технологий и язык программирования java. In Информатика: проблемы, методология, технологии (pp. 13-16).

10. Kadirbergenovna, B. L. (2023, November). Methodology for organizing the process of distance education and its teaching. In E Conference World (No. 2, pp. 160-164).

## **TA'LIMDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYASINI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY TAMOYILLARI**

**Mamarajabov Odil Elmurzayevich**

**Nizomiy nomidagi TDPU**

**Axborot texnologiyalari kafedrası v/b dosenti**

**Asatullayeva Hilola Bobur qizi**

**Axborot tizimlari va texnologiyalari 2-bosqich talabasi**

Ta'lim jarayonini raqamli transformatsiyasining ahamiyati global o'tish jarayonlari bilan raqamli iqtisodiyot va raqamli jamiyatga bog'liq. Bu istiqbollari qanday bo'lishini asosan ta'lim belgilaydi. Ta'limning raqamli transformatsiyasi konsepsiyasi turli pozitsiyalardagi bir qator mualliflar tomonidan tadqiq qilinmoqda.

Shunday qilib, "raqamlashtirish" atamasi axborotkommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi munosabati bilan paydo bo'ldi. Ta'limni raqamli transformatsiya qilish muammosiga E.L. Vartanova, M.I. Makseenko, S.S. Smirnovlar o'zlarining ilmiy xulosalarini berganlar. Ya'ni, ta'limni raqamli transformatsiya qilish - ta'lim mazmunining infratuzilmaviy, boshqaruv, xulq-atvor va madaniy tarkibiy qismi sifatida qabul qilinishi kerak.

Ta'lim muhitining asosiy tarkibiy qismlari, shubhasiz, hozirgi davrda raqamli axborot ta'lim muhitini shakllantirish va uni umumta'lim tizimiga integratsiyalash jarayonida elektron ta'lim tizimini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. O'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim – ta'lim muhitini shakllantirishda va raqamli